



'SAXOVAT VA KO'MAK' umumxalq harakati

Ehtiyojmand oilalarga e'tibor

Qurbon hayiti munosabati bilan Sux tumani "Mahalla" xayriya jamoat fondi qoshida tashkil etilgan "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati doirasida tumandagi nogiron, ijtimoiy ko'makka mo'htoj oilalarga 26 million 400 ming so'mlik 220 dona un mahsuloti, 11 million 220 ming so'mlik 220 dona yog' mahsuloti berildi. 3 nafar bemorlarga 4 million so'm miqdoridagi dori-darmonlar yetkazib berildi. 25 iyul 2007 yilda tug'ilgan Mullohasanov Sherozbek Sho'huratjonovichning yuragini jarrohlik qilish uchun 11 million 400 ming so'm mablag' o'tkazib berildi. Jami bo'lib, qilingan xayriyalar miqdori 53 million 020 so'mni tashkil etadi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan imzolangan 30 iyundagi 6038-sonli "Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan 800 nafar ijtimoiy ko'makka mo'htoj, boquvchisini yo'qotgan, yakka yolg'iz fuqarolarga 500 ming so'mdan moddiy yordam mablag'lari yetkazib berildi.

Sux tumani xokimligi Axborot xizmati

2020-08-04 16:11:35